

Rasman! Abituriyentlardan hujjatlar OTMlarda qabul qilinmaydi

Rasman! Abituriyentlardan hujjatlar faqat Davlat xizmatlari markazlari yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali qabul qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalariga test sinovlari orqali qabul qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, 2019/2020 o'quv yili qabulidan boshlab, davlat OTMlariga bakalavriatga o'qishga kirish uchun abituriyentlar faqat Davlat xizmatlari markazlari yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qiladilar.

Shuningdek, test sinovlari tashkil etilayotgan o'quv yilidan avvalgi yillarda ta'lim muassasalarini tugatgan abituriyentlardan (nogironligi bo'lgan yoki to'liq davlat ta'minotidagi shaxslar bundan mustasno) test sinovlarida ishtirok etishi uchun EKIH yarim baravari (101 ming 365 so'm) miqdorida to'lov undiriladi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi